


## GAP LISONIY SINTAKTIK QOLIPIDA ANIQLOVCHINING O'RNI



**Farhodova Kumushoy Qahramon qizi**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalish talabasi.

**Masharipova Maftuna G'ayrat qizi**

Ajiniyoz nomidavgi Nukus davlat pedagogika instituti  
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

**Madaminova Marhabo Oybek qizi**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolamiz orqali aniqlovchining lisoniy sintaktik qolipdagi o'rni, turlari, ishlatilish o'rnlari haqida lingvistik tahlillar asosida yoritib berilgan.

**Kalit sozlar:** aniqlovchi, sifatlovchi, qaratqich, izohlovchi, otlashgan, belgili, belgisiz, qaralmish, qarashlilik.

**Аннотация:** В этой статье на основе лингвистического анализа объясняются положение, виды и места употребления определителя в языковом синтаксическом образце.

**Ключевые слова:** определяющий, определяющий, указательный, объяснительный, притяжательный, отмеченный, неотмеченный, подлежащий, относительный.

**Abstract:** Through this article, the position, types, and places of use of the determiner in the linguistic syntactic pattern have been explained based on linguistic analysis.

**Key words:** defining, qualifying, indicative, descriptive, possessive, marked, unmarked, subject, relative.

Bilamizki, tilimizda beshta gap bo'lagi mavjud. Bular ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol. Ular ikki guruhga ajratiladi: bosh bo'laklar, ikkinchi darajali bo'laklar. Bosh bo'laklarga ega va kesim, ikkinchi darajali bo'laklarga esa to'ldiruvchi, aniqlovchi va hol mansubdir. Shunday ikkinchi darajali bo'laklardan aniqlovchi haiqda batafsil ma'lumotlarni misollar yordamida ko'rib chiqamiz. Ma'lum bir gap bo'lagi vazifasida kelgan predmetni bildiruvchi so'zlarga bog'lanib, uning belgisisni bildirgan bo'lak aniqlovchi hisoblanadi. Masalan, bog'da xushb 'y gullar ochilgan. Ushbu gapda xushbo'y so'zi aniqlovchi vazifasini bajarmoqda. Aniqlovchining belgi anglatishi predmetning biror sifatini, xususiyatini, miqdorini yoki qarashlilikni va shu kabi xususiyatini ifodalashdan iborat. Shunga ko'ra aniqlovchi predmetning qanday belgisisni ifodalashiga ko'ra uch turga ajratiladi:

- a) Sifatlovchi aniqlovchi
- b) Qaratqich aniqlovchi
- c) Izohlovchi aniqlovchi.

Predmetning belgisini (ta'mi, mazasi, xil-xususiyati, miqdor, tartib, o'rin-payt) bildiruvchi aniqlochi sifatlovchi aniqlovchi deyiladi. Masalan, oyim juda mazali ovqat qilibdilar. Zangori osmonda qira yulduzlar ko'p edi. Men beshta kitob oldim. Sifatlovch aniqlovchi sifatlovchi, aniqlanyotgan predmet esa sifatlanmish deb yuritiladi. Sifatlovchi va sifatlanmish munosabati sifatlovchili birikma deyiladi. Masalan, Bog'dan qizil olmalar terdim. Ushbu misolda qizil olma sifatlovchili birikma deyiladi. Sifatlovchi aniqlovchi quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi:

- 1.Sifat bilan: ulug' mamlakat.
- 2.Sifatdosh bilan: oqar suv
- 3.Ravish bilan: ancha kitob
- 4.Son bilan: O'n beshta daftар
- 5.So'roq olmoshi bilan: qaysi xona?
- 6.Sifat vazifasidagi ot bilan: anoq yuzlik
- 7.Undov so'zlar: g'ir-g'ir shabada

Bir predmetning boshqa predmetga qarashlilik ma'nosini bildiruvchi aniqlovchiga qaratqich aniqlovchi deyiladi. Masalan, mактабning bo'g'i, mening ukam kabi. Qaratqich aniqlovchi qaratqich, qaratqich aniqlovchi bog'langan bo'lak esa qaralmish deyiladi. Ularning munosabati esa qaratqichli birikma deyiladi. Masalan, mening kitobim chiroyli gapida mening kitobim qaratqichli birikma hisoblanadi. Qaratqich aniqlovchi qaratqich kelishigini, qaralmish esa egalik shaklini olgan bo'ladi. Ba'zan bu shakllar ifodalanmasligi ham mumkin. Masalan, bog'ning ko'rinish (qaratqich+egalik), shahar ko'chalari(0+egalik), bozor ko'cha(nol shakl). . Agar qaratqich atoqli otlar, olmosh, otlashgan so'zlar bilan ifodalansa, albatta qaratqich kelishigi bilan qo'llaniladi. Shuningdek,qaratqich va qaralmish o'rtasida boshqa bir so'z bo'lsa, qaratqich kelishigi Toshiba qolmaydi. Masalan, Mirzacho'lning sovuq shamoli. Ushu gapda qaratqich kelishigini olib tashlolmaymiz, chunki gapda ma'no yo'qoladi. Mirzacho'l sovuq shamol degan shakl g'alizdir. Qaratqich aniqlovchi quyidagi so'zlar bilan ifodalanadi:

- 1.Ot bilan yoki ot ma'nosida, ot kabi qo'llangan olmosh bilan: Navoiyning haykali, mamlakatimizning yuksalishi, uning daftari.
- 2.Otlashgan so'zlar bilan:
  - a) otlashgan sifat bilan: ilg'orlarning yurug'i
  - b) otlashgan son bilan: owning yarmi besh
  - c) otlashgan fe'l bilan: o'qiganning bahosi yuqori
  - d) otlashgan olmosh bilan: qaysingizning onagiz doctor

Ayrim otlar Hatton atoqli otlar ham ba'zan bir necha shaxsni ifodalashi mumkin. Bunday vaqtida gap kim haqida ketyotganini aniqlashtirib olish zarur. Ana shunday vaqtida aniqlovchining izohlovchi turiga ehriyoj seziladi.

Predmetni bosh bir nom berish bilan aniqlaydigan bo'lak izohlovchi aniqlovchi deyiladi. Masalan, akademik Habib Abdullayev, dutorchi qizlar.

Izohlovchi bog'langan hokim bo'lak izohlanmish deyiladi. Izohlovchi va izohlanmish munosabati izohlovchili birikma deyiladi. Ularning munosabati sifatlovchi-sifatlanmish munosabatiga o'xshaydi, lekin ular qanday so'z bilan ifodalanishi bilan farq qiladi. Sifatlovchi-sifatlanmish munosabatida sifatlovchi asosan, sifat va sifatlashgan so'zlar bilan ifodalanadi. Sifat+ot ko'rinishida bo'ladi. Solishtiring: qizil gul(sifatlovchi-sifatlanmish), professor G'ozi olim Yunusov(izohlovchi-izohlanmish).

Izohlovchilar quyidagi ma'nolarni bildiradi:

- 1.Amal unvon: kapitan Aliyev
- 2.Mashg'ulot, kasb ma'nolarini: Haydar qassob
- 3.Millatni bildiradi: bu bola—xitoy jangida jasorat ko'rsatdi
- 4.Qarindoshlikni bildiradi: Tohir amakim keldi
- 5.Turni bildiradi: tol yog'och
- 6.Jinsi: qiz bola
- 7.Laqab, taxallus: Tolib cho'loq, Gulxaniy taxallus.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, aniqlovchi gap bo'laklari orasida belgi, qarashlilik, izohlash vazifalarini bajarishi bilan alohida ajralib turadi. Aniqlovchining vazifalarini yaxshi anglab, uni buzmagan holda ishlatish katta ahamiyatga egadir. Aniqlovchi o'z nomidan ham anglashilib turibdiki, so'zlarni aniqlash vazifasini, ya'ni qanday aniqlash, belgi, ifodalanyotgan predmetning kimga yoki nimaga qarashliligi va so'zlarga aniq bir izoh kiritish funksiyasini bajaradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1. R.Sayfullayeva. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. – 2020.
2. B.Mengliyev . Hozirgi o'zbek tili. Toshkent. – 2018.
3. A.G'ulom. M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tili.—Toshkent 1965
4. Ergasheva D.A. Odil Yoqubov asarlarida inson ruhiy holati ifodalanishining lisoniy manzarasi // Сўз санъати халқаро журнали. – Тошкент, 2020. №1, 2-jild. ISSN: 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. – B. 99-103. (10.00.00 № 31)

.